


### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **16579,1 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **95,3 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **3261,5 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **19,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **23,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16579,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 89,5 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 100,3 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 101,1 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 98,2 % ni tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7354,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,4 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmining – 95,4 % ni, gaz kondensati – 98,2 % ni, neft qazib olish – 93,6 % ni, qum – 83,5 % ni, shag`al – 98,0 ni, chaqiq tosh – 75,5 % ni tashkil etdi.

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<b>2018 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Tabiiy gaz, mln. kub. m.</b>			
28034,3		26749,9	95,4 
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>			
1174,7		1153,9	98,2 
<b>Neft, ming t.</b>			
472,9		442,5	93,6 
<b>Qum, ming tonna</b>			
151,9		126,7	83,5 

2018 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
160,5	Shag`al, ming t. 	157,3	98,0 
127,6	Chaqiq tosh, ming t. 	96,3	75,5 


### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishslash sanoati).

2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7104,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018 – yil yanvar - oktyabr oylarida – 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 27,6 % (28,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 6,4 % (5,76 %) va quyi texnologiyali – 65,9 % (65,4 %) tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 37,3 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 55,7 % ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 110,6 % ni, ip-kalava – 122,8 % ni, plastmassa quvurlar – 99,3 % ni, alkogol ichimliklar – 98,1 % ni, kaliy xlorid – 107,1 % ni va polietilen – 100,1 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<b>2018 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Paxta tolasi, t.</b>			
91046		33960	37,3
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t.</b>			
16763,3		9342,1	55,7
<b>Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.</b>			
104081,3		115076,5	110,6
<b>Ip-kalava, t.</b>			
16171,0		19851,0	122,8
<b>Plastmassa quvurlar, t.</b>			
3763,0		3735,0	99,3
<b>Alkogol ichimliklar, ming. litr</b>			
2296,0		2251,5	98,1

2018 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
150,9	Kaliy xlorid, ming t. K2O 	161,7	107,1 ↑
111,1	Polietilen, ming t. 	111,2	100,1 ↑



### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.*

2019 yil yanvar - oktyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1995,6 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0 % ni) tashkil etdi.

### *Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 124,7 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 6,6 % ga oshganligini, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizasiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 6,3 % ga kamayganligi kuzatildi.



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3261,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagagi ulushi esa 19,7 % ni tashkil etdi.


### 2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - oktyabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 57,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 42,2 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,2 % tashkil etdi.


**Yanvar - oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**

**2018 yil**



■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari

**2019 yil**




■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari

**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 32,8 %), G'uzor tumani (20,9 %), Qarshi shahri (13,2 %), Nishon (10,8 %), Qarshi (3,9 %) va Koson (3,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Kasbi (1,1 %), Mirishkor (1,3 %), Chiroqchi (1,4 %), Qamashi (1,4 %), Shahrисабз (1,7 %) va Yakkabog' (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Muborak tumani 5433,6 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 3472,4 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 2184,8 mlrd. so`mni va Nishon tumani 1785,9 mlrd. so`mni tashkil etdi.

***2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida shahar va tumanlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***



**2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - oktyabr oylariga nisbatan, % da**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Kitob tumanida (2018 yil yanvar – oktyabr oylariga nisbatan 112,8 %), Shahrisabz sh. (107,1 %), Qarshi tumanida (105,9 %), Nishon tumanida (104,7 %), Dehqonobod tumanida (104,6 %), Qarshi sh. (104,6 %) va Chiroqchi tumanida (104,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**2019 yil yanvar - oktyabr oylarida shahar va tumanlar bo`yicha  
istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`sish sur`ati**


	Mlrd. So`m	2018 yil yanvar – oktyabrga nisbatan o`sish, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	3261,5	111,4
Qarshi sh.	1031,9	112,3
Shahrisabz sh.	242,6	110,4
tumanlar:		
G'uzor	81,8	110,8
Dehqonobod	53,6	112,6
Qamashi	160,7	112,8
Qarshi	186,2	110,6
Koson	272,9	104,5
Kitob	207,9	111,9
Mirishkor	73,8	113,0
Muborak	74,0	112,6
Nishon	80,2	113,0
Kasbi	93,6	112,8
Chiroqchi	196,5	112,7
Shahrisabz	268,0	112,8
Yakkabog`	237,8	111,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Nishon tumanida (2018 yil yanvar - oktyabr oylariga nisbatan 113,0 % ni), Mirishkor tumanida (113,0 % ni), Kasbi tumanida (112,8 % ni), Qamashi tumanida (112,8 % ni), Shahrisabz tumanida (112,8 %), Chiroqchi tumanida (112,7 % ni), Muborak tumanida (112,6 ni) va Dehqonobod tumanida (112,6 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,6 %), Koson tumanida (8,4 %), Shahrisabz tumanida (8,2 %) va Shahrisabz shahrida (7,4 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (63589,5 ming so'm), G'uzor tumanida (17303,4 ming so'm), Nishon tumanida (11907,3 ming so'm) va Qarshi shahrida (8012,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5121,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

***2019 yilning yanvar – oktyabr oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda***




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 23,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qamashi (91,7 %), Chiroqchi tumanida (86,2 %), Shahrисabz tumanida (79,5 %), Yakkabog` tumanida (78,6 %), Qarshi shahrida (63,7 %) va Shahrисabz shahrida (53,4 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,6 %), G'uzor tumanida (2,3 %), Nishon tumanida (9,8 %) va Dehqonobod tumanida (12,5 %) kuzatildi.


### **2019 yilning yanvar - oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 676 tasi Qarshi shahrida, 400 tasi Kitob tumanida, 298 tasi Yakkabog` tumanida, 291 tasi Shahrisabz shahrida, 272 tasi Qarshi tumanida, 255 tasi Chiroqchi tumanida, 188 tasi Qamashi tumanida, 173 tasi Shahrisabz tumanida, 172 tasi Koson tumanida, 161 tasi G`uzor tumanida, 123 tasi Nishon tumanida, 114 tasi Kasbi tumanida, 75 tasi Mirishkor tumanida, 66 tasi Dehqonobod tumanida va 63 tasi Muborak tumanida joylashgan.

### **2019 yil 1 noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar - oktyabr oylarida viloyatda 1034 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 175 tasi Qarshi shahriga, 96 tasi Yakkabog` tumaniga, 104 tasi Chiroqchi tumaniga, 93 tasi Qarshi tumaniga, 82 tasi Kitob tumaniga, 79 tasi Shahrisabz tumaniga, 63 tasi Nishon tumaniga, 72 tasi Shahrisabz shahriga, 52 tasi Qamashi tumaniga, 48 tasi Kasbi tumaniga, 59 tasi G`uzor tumaniga, 43 tasi Koson tumaniga, 29 tasi Mirishkor tumaniga, 20 tasi Dehqonobod tumaniga va 19 tasi Muborak tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo`limi**

**Tel.: (75) 221-32-36**